

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI

Saminbayev Mashhurbek¹

¹ Urganch davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

mmott7777@gmail.com

MAQOLA MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 01.11.2024

Revised: 02.11.2024

Accepted: 03.11.2024

KALIT SO'ZLAR:

oila, farzand "oila tarbiyasi", "oila dunyosi", "Tadbirul manzil", Fitrat, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Otaxo'jayev, Safarov, Mahmudov, Musurmanova, Xalmatova, nuklear, mezalyans.

Farzand tarbiyasi azal-azaldan Sharq xalqlari hayotida eng asosiy qadriyat sifatida shakllangan. Shu bilan bir qatorda, islom dinida oilaviy munosabatlar, nikohning manfaatlari, er va xotinning burch va vazifalari, oilada farzand tarbiyasi kabi masalalarga nihoyatda katta ahamiyat qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, farzand tarbiyasini tartib-intizomga asoslangan holda olib borish jamiyat taraqqiyotiga, unda barkamol insonlar salmog'ining oshishiga xizmat qiladi.

KIRISH. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? **"Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"**, deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida.

Darhaqiqat, bugun dunyo inson nigohida halqalangan ko'zyoshdek qalqib turgan bir paytda yoshlarni chalg'ituvchi, ularni o'z domiga tortishni istovchi turli g'arazli kuchlar ko'payib boryapti. eng achinarlisi, dunyoning qaysi burchagida biror jinoyat sodir etilsa, albatta, bunda yoshlarning g'o'rliigi, oq-qorani hali to'liq ajrata olmasligidan foydalanilyapti.

Ma'lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim o'rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu borada buyuk Sharq mutafakkirlarining farzandlar tarbiyasi borasidagi boy ma'naviy merosi va undan samarali foydalanish katta ijobiy natija berish bilan birga katta ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Konfutsiyning shogirdi Sziyu, **“Farzand odobi nima?”** deb so'radi. Muallim javob qildi: — Hozir farzand odobi, deganda faqat ota-onalarga mehr ko'rsatish, ularga qarash tushuniladi. Hayvonlar ham parvarish qilinadi-ku. Izzat-ikrom ko'rsatilmaydigan bo'lsa, bu ikkisida farq bo'lmaydi.⁵³

Men Sun Konfutsiydan farzandlik burchi nima, deb so'radi. Ustoz javob berdi:— Tuzukdan chiqmaslik. shunda Ustoz aytdi:— Men Sun farzandlik burchi nima, deb so'radi. Men unga: tuzukni buzmaslikdir, deb aytdim.— Buning ma'nosi nima? — deb so'radi Fan Chi.Shunda Ustoz javob berdi:— **Ota-ona tirikligida ularga yaxshi xizmat qilmoqdir. Qazo qilsalar — ko'mib kelmoq va zarur rasm-rusumlarni ado etmoqlikdir.**⁵⁴

Imom Muslim rivoyat qilgan Hadisi sharifda: “Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar”, deyiladi. Farzand ta'lim-tarbiyasi xususida Imom G'azzoliy o'zining “Ithyul ulumud din” asarida **“Bola – ota-ona qo'lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan xoli. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi... Agar yaxshilikka undalsa va o'rgatilsa, saodatli bo'ladi. Ota-onasi hamda odob, ta'lim-tarbiya bergan ustozlar uning savobiga sherik bo'ldi...”** deb yozadi.

Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shgan, donishmand xalq farzandlarimiz. Buning asosi esa ilm-ma'rifat,

⁵³ Konfutsiy. – Hikmatlar. –T.,1998. 68-bet.

⁵⁴ Konfutsiy. – Hikmatlar. –T.,1998. 88-bet.

bag'rikenglik va o'zlikni anglash ajdodlarimizning doimiy intilishi, maqsad-muddaosi bo'lganidadir. Zotan, IX–XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan Birinchi Sharq Uyg'onish davrida ham, butun dunyoda Temuriylar davri Renessansi deya e'tirof etilgan XIV–XVI asrlardagi Ikkinchi SHarq Uyg'onish davrida ham jamiyatda din-u diyonat mustahkam, insonlar dunyoqarashida ma'naviyat qadrlil, davlatchilik tuzumida ilm-fan va ma'rifat ustuvor bo'lgan.

Bir so'z bilan aytganda, azal-azaldan xalqimizning ilm-u fan, ijod-u mehnatga rag'batl baland bo'lib, o'zining yuksak ma'naviyati, imon-e'tiqodi, milliy g'ururi hamda umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan go'zal odob-axloqi bilan hamisha ibrat bo'lgan. Shunday ekan, beg'ubor va muhtasham orzu-umidli yoshlarimiz yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan o'z vaqtida oqilona foydalanib, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz yuksalishiga hissa qo'shadigan farzandlar bo'lishiga ishonamiz.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Albatta, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. Inson ta'lim-tarbiyasi masalasida esa, albatta, ustoz-u murabbiylarning o'rinlari beqiyos. Binobarin, Navoiy ta'biri bilan aytganda, agar shogird shayxulislomdek buyuk martabaga ko'tarilganda ham ustozl undan rozi bo'lsagina, Tangri ham rozi bo'ladi:

Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur –tengri rozidur.⁵⁵

Navoiy o'z asarlarida o'g'il-qizlarni tarbiyali bo'lishga, ilm cho'qqilarini egallashga, bu yo'lda matonatli bo'lishga da'vat qiladi. Zero, yoshlikda egallangan bilim kuni kelib, albatta, mevasini beradi. Shu o'rinda "Zikri hukamo"dagi ushbu hikmatni keltirish o'rinli:

"Buzurgmehr aytadi:

Ustozimdan so'radim: yigitlikda nima qilmoq va qarilikda nima qilmoq yaxshiroqdir? Dedi: Yigitlikda ilm o'rganmoq, qarilikda esa uni amalga oshirmoq.⁵⁶

Navoiy ta'lim-tarbiya ishlarining naqadar nozik jarayon ekanini yaxshi anglagan holda, komil insonni tarbiyalash masalasini eng oliy maqsad sifatida chuqur talqin va tatbiq etgan. Shu sababli bo'lsa kerak umumiy o'rta ta'limning 1-sinfidan 11-

⁵⁵ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik, 9-jild. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. –768 b

⁵⁶ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik, 9-jild. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. –768 b

sinfgacha bo'lgan barcha darsliklarida hayoti va ijodi o'rganiladigan yagona alloma – Alisher Navoiydir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish kitoblarida buyuk mutafakkir haqida keltirilgan ma'lumotlar, hikoyalar, uning o'z ijodiga mansub hikmatli so'zlar, albatta, bola dunyoqarashini kengaytirishga, uni tabiat va insonlarga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularning intellektual salohiyati va ma'naviyatini oshirish, orzu-umidlarini to'g'ri yo'naltirish, ezgulik, oila va Vatanga muhabbat, ularning ong-u shuuriga insof, imon, e'tiqod, oriyat, oiladagi burch, majburiyat, mas'uliyat tushunchalarining mazmun-mohiyatini singdirishga e'tibor qaratish zarur. Bu borada, eng avvalo, ota-onalar farzandlarining birinchi tarbiyachilari sifatida mas'uldirlar. Bu mas'uliyat esa ota-onalarning o'zlaridan ma'naviy-ma'rifiy yetuklikni, yaxshi sifatlariga ega bo'lishlikni talab etadi. Ana shundagina ular farzandini barkamol inson qilib tarbiyalaydi va oilaviy hayotga to'g'ri yo'naltira oladi. Buyuk alloma Nosriddin Rabg'uziyning fikricha, "Ota-ona ezgu bo'lsa, uning ezguligi yetti urug'-aymog'iga yetadi. Buning uchun ular farzandlarining ko'z o'ngida shaxsiy namuna, ibrat ko'rsatishlari kerak bo'ladi".

Amir Temur davrida oilalarga alohida e'tibor qaratilgan. Amir Temurning buyuk asari "Temur tuzuklari"ni varaqlar ekanmiz, oila masalasiga, farzandlar tarbiyasi va kelajagiga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Buyuk sohibqiron Amir Temur oila qurish masalasiga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan. Buyuk Sohibqiron xususan oila qurish, farzandlarni uylantirish va kelin tanlash haqida kuyidagi fikrlarni bildirgan: **"O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabasi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushurdim.**"⁵⁷

"Boburnoma"da Bobur o'z farzandlarining ta'lim-tarbiyasiga doimo katta e'tibor bergan, saltanat ishlari va ijoddan bo'sh vaqtlarida ularning ta'lim olishi, xulqi va tarbiyasini muntazam nazorat qilgan.

Bobur farzandlariga muhabbati kuchliligidan ular uchun alohida asarlar yaratgan, dunyoviy va diniy ilm, davlat ishlari va ijod haqida bolalari bilan maktublar yozishishgan.

⁵⁷ Amir Temur o'gitlari, – T.,1992, 58-bet. 1998. 279-bet.

Xususan, farzandlari uchun kitob yozishni otalik va podshohlik burchi deb hisoblagan **Bobur 1522-yilda o'g'li Humoyunga atab "Mubayyin" asarini yozadi.**

O'g'li Komronga yozgan maktubida farzandining iqboli yo'lida muhim fikrlarni bildirib, **"...umidim borkim, jami'i qobiliyat va salohiyat bobida komil va mukammal bo'lub kamolg'a yetgaysen"**, deya uning kelajagiga katta ishonch bildiradi.⁵⁸

Bobur o'g'li Humoyunga yozgan maktubida farzandiga shunday tanbeh beradi: **"Yana men degandek bu xatlaringni bitibsen va o'qumaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'qiy olmas eding. O'qiy olmagandin so'ng albatta tag'ir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qisa bo'ladur, vale asru mug'laqtur..."**⁵⁹

Anglanadiki, Bobur farzandlarining nafaqat ilmi va komil shaxs bo'lishini, balki xatlarini imlo xatolarisiz, sodda va ravon tilda yozishga undagan.

Fitratning ta'kidlashicha farzand tarbiyasi **uch** qismdan iborat:

- 1. Badan tarbiyasi;**
- 2. Aqliy tarbiya;**
- 3. Axloq tarbiyasi.**

Tarbiyaning tarkibi haqida fikr bildirar ekan Fitrat badan tarbiyasi — ota-onalar oilada ilm va tibbiy qoidalarni amalda qo'llagan holda bolaning yuvinishi, kiyinishi, yeyish-ichishi va uxlashiga katta e'tibor qaratishida namoyon bo'lishini ta'kidlab, yosh go'dak uchun eng yaxshi ozuqa ona sutidir, bolani kasallikdan himoya qilishning eng samarali yo'li badan tarbiyasidir, deydi. Aqliy tarbiya — bu odam zehni, aql-idrokini kamolga yetkazishdir. Odam aqlining kamoli — yaxshi bilmoq, yaxshi o'rganmoq va mukammal fikr qilmoqdir. Odam ish qilishidan oldin uni xayoliga keltiradi, fikr etib keyin amal qiladi. Bolani aqliy va badan tarbiya qilib, unga axloqiy tarbiya berilmasa, aqli hamda jismoniy kuchi atrofdagilar zarariga ishlaydi..⁶⁰

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ota-ona farzand tarbiyasiga u dunyoga kelmasdan oldin kirishishi, ular dunyo yuzini ko'rgandan keyin esa, go'zal axloqiy sifatlarni ular ongiga singdirish borasida g'ayrat ko'rsatishi, dunyo va oxirat saodatiga erishishda ko'maklashuvchi diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgatishi zarur.

⁵⁸ Z.M.Bobur. Boburnoma. –T.,1998. 68-bet.

⁵⁹ Z.M.Bobur. Boburnoma. –T.,1998. 68-bet.

⁶⁰ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: "Ma'naviyat", 1998. – 8 b.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoniy tarjimasi. -Tehron: Eron milliy kutubxonasi, 1902. -28 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. -T.: Me'ros, 1998. -132 b.
3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: “Ma'naviyat”, 1998. – 8 b.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoki axloq. –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. — 97 b.
5. Amir Temur o'g'itlari, – T.,1992, 58-bet. 1998. 279-bet.
- 6.Z.M.Bobur. Boburnoma. –T.,1998. 68-bet.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. –768 b
8. Avaznazarov O.R. The role of the image of Saki in the Navoi's literary and historical mission. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 9 / Issue: 3 /-Masedonia, 2020. –P.10–17.
- 9.Konfutsiy. – Hikmatlar. –T.,1998. 68-bet.